

ERTAK DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O’TKAZISH

Shahnoza Axmedova

Buxoro davlat pedagogika instituti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi magistranti

Sinf: 2

Fan: O‘qish savodxonligi

Mavzu: O‘rmondagi ziyofat (Anvar Obidjon)

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: ertak, adabiy ertak, xalq ertaklari.

Soatlar soni: 45 daqiqa

Mavzuning qisqacha ta’rifi: Anvar Obidjon ijodi bilan tanishtirish, “O‘rmondagi ziyofat” she’riy ertagini o‘qish, mazmunini o‘rganish va tahlil qilish.

Dars maqsadi:

a) Ta’limiy maqsad: O‘quvchilarning ertak janri haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash. Ularning matnini ifodali o‘qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, Anvar Obidjonning hayoti, ijodi va asarlari haqida ma’lumot berish.

b) Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarni rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik fazilatlarini haqidagi tasavvurlarini boyitish, yolg‘onchilik, ochko‘zlik kabi nuqsonlarga nafrat tuyg‘ularini uyg‘otish, o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, o‘z kasbini mohir ustasi bo‘lishga, kasbini sevishga o‘rgatish.

c) Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, oq‘zaki nutqning ta’sirchan bo‘lishiga erishish.

Tayanch kompetensiya:

1) Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: asardagi materiallarga ongli munosabat bildirish;

2) Milliy va umummadaniy kompetensiya: asarlarda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik g‘oyalarini anglab, yovuzlik va dushmanlikdan nafratlana oladi, do‘stlari va atrofdagilarga mehr-oqibat tuyg‘ulari shakllanadi.

Fanga oid kompetensiya:

1) Adabiy-nutqiy: ertakni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qiy olish;

2) Badiiy asarni tahlil qilish: o‘qilgan asar mazmuniga doir savol va topshiriqlarga javob berish, qahramonlarni ajrata olish.

Dars turi: yangi tushuncha va bilim shakllantiruvchi.

Dars usuli: tushuntirish, savol-javob, guruhlarda ishlash, “Chaynovord”, “Matn tahlili”, “Tezkor savol-javob” mashqlari.

Dars jihozi: darslik, multimedia ilovalari, slaydlar, mavzuga oid rasmlar, Anvar Obidjon portreti va bolalarga atab yozilgan ertak kitoblari, rag’bat kartochkalari.

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

T/r	Darsni rejalashtirish	Vaqt
1	Tashkiliy qism	5 min
2	O’tilgan mavzuni takrorlash	5 min
3	Yangi mavzuni interfaol usullardan foydalanib o’tkazish	25 min
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	5 min
5	O’quvchilarni baholash	3 min
6	Uyga vazifa	2 min

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, navbatchilik nazorati, navbatchi axboroti, o’quvchilarni darsga hozirlash;

b) Ma’naviyat daqiqasi.

II. Uyga vazifani so’rash va o’tilgan mavzuni mustahkamlash:




O’tilgan darsda o’rganilgan “Yo’lbars bilan tulki” ertagi yuzasidan savollar beriladi. 4-5 nafar o’quvchi ertak mazmunini og’zaki hikoya qilib berishadi va barcha o’quvchilardan ertakdan chiqargan xulosalari so’raladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

– Bugun sizlar bilan Anvar Obidjonning “O’rmondagi ziyofat” ertagi bilan tanishamiz.

O’quvchilar mavzuni yozuv taxtasidan yozib oladilar va darslikni ochadilar. Ertak muallifi – Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida slayd orqali ma’lumot beriladi. Anvar Obidjon – bolalarning sevimli ijodkori – 1947-yilda tug’ilgan. Ijodiy faoliyati davomida bolalar va kattalarga atab ko’plab kitoblar yozgan. Ijodkorning “Ona yer”, “Dahshatli Meshpolvon”, “Olovjon va uning do’stlari”, “Bezgakshamol”, “Oltin yurakli Avtobola”, “Meshpolvonning janglari”, “Odobli bo’lish osonmi?” singari asarlari yosh kitobxonlar tomonidan sevib o’qiladi.

– Xo’sh, bolajonlar, ijodkorimiz sizlar uchun qanday asarlar yozgan ekan? O’quvchilar javob berishadi.



So'ng yangi mavzu – “O'rmondagi ziyofat” ertagi o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi, ertak yuzasidan o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

– Ertak sizlarga yoqdimi? O'rmonda nima ochilibdi?

- Ertakda qaysi hayvonlar tilga olingan?
- Ular nima ish qiladi?
- Mehmonlar nima buyurdi?
- O’rmonda ochilgan oshxonani sizlar qanday tasavvur qildingiz?

O’quvchilar savollarga javob berishadi.

– Endi ertakda uchragan yangi so’zlarni topib, mazmunini o’rganamiz va daftarimizga yozib qo’yamiz.

Taom – ovqat, yemish, yegulik

Chag’ir – ola-bula, kulrang

Chirik – chirigan

Xo’randa – ovqat sotib oluvchi, ovqatlanuvchi

Kunjara – moyli ekinlarning urug’laridan olinadigan mahsulot; uy hayvonlari uchun ozuqa

Yangi so’zlar o’rganilgach, o’quvchilar ertakni navbat bilan 4 qatordan o’qiydilar, o’qituvchi har bir o’quvchini kuzatib xatolarini tuzatib, ifodali va ravon o’qigan o’quvchilarni rag’batlantirib boradi.

O’qituvchi ertakni o’zi yakunlaydi.

– Biz sizlar bilan bugunga qadar ko’plab ertaklar bilan tanishganmiz (o’quvchilardan qanday ertaklarni eshitganlari va o’rganganlari so’raladi).

Ertaklar ikki turga bo’linadi: xalq ertaklari va adabiy ertaklar.

Xalq ertaklari biror bir xalq yoki millatga tegishli bo’ladi, og’izdan og’izga o’tib, kelgusi avlodlarga yetkazib beriladi. “Zumrad va Qimmat”, “To’g’rivoy bilan Egrivoy”, “Susambil”, “Ochko’z boy”, “Bo’ri bilan laylak”, “Ochil dasturxon” va “Ur to’qmoq” kabi ertaklar o’zbek xalq ertaklari hisoblanadi (bu ertaklarni bilasizmi?).

Adabiy ertaklar esa yozuvchi va ijodkorlar tomonidan yaratiladi. O’zbek adabiyotida Hamid Olimjon, Sulton Jo’ra, Xudoyberdi To’xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, O’lmas Imonberdiyev, Anvar Obidjon singari ertaknavis ijodkorlarimizning asarlari mashhurdir. Sizlar bilan bugun o’rgangan “O’rmondagi ziyofat” ertagi ham adabiy ertaklar sirasiga kiradi.



O’quvchilar nuqtalar o’rniga kerakli so’zlarni ertakdan topib qo’yadilar va savollarga javob beradilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

“**Chaynvord**” mashqi: Jadvalda tartibsiz joylashgan harflardan iborat so’zlar beriladi. O’quvchilar harflarni tartib bilan o’z o’rniga qo’yadilar, natijada ertakda ishtirok etgan so’zlar kelib chiqadi.

ilF	geBemot	shake	maOlxon
To’nizg’	tO	zoBuq	piKir
shukMu	chukuK	muMayn	kiTul

O’quvchilar hosil bo’lgan so’zlarni ertakdan topib o’qiydilar va ular haqida qo’shimcha ma’lumotlar aytadilar.

O'qituvchi ko'rsatmasi bilan o'quvchilar ertakni rollarga bo'lib o'qiydilar.

V. O'quvchilarni baholash:

O'quvchilar to'plagan kartochkalariga qarab baholanadilar. Darsda eng faol qatnashgan va eng ko'p kartochkasi egasi bo'lgan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan hammaga o'rnak qilib ko'rsatiladi.

VI. Uyga vazifa berish va darsni yakunlash:

O'quvchilardan bugungi darsdan olgan taassurot va xulosalari so'raladi.

Uyga vazifa ertakni ifodali o'qish va o'quvchilar o'z tasavvurlaridagi o'rmon oshxonasining rasmini chizish.

Dars yakunlanadi.